FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SAIPOVA HILOLA ABDULXAMITOVNA

NUTQ SINTAKTIK KOMPOZITSIYASI VA UNING KOMMUNIKATIV, SEMANTIK, FUNKSIONAL TADQIQI

10.00.01 - O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg'ona – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati mundarijasi

Oglavleniye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po filologicheskim naukam

Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SAIPOVA HILOLA ABDULXAMITOVNA

NUTQ SINTAKTIK KOMPOZITSIYASI VA UNING KOMMUNIKATIV, SEMANTIK, FUNKSIONAL TADQIQI

10.00.01 - O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg'ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2842 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	**Abdupattoyev Muxammadtohir Tojimamatovich** filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Usmonova Hurinisa Sharopovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Pardayev Azamat Baxronivich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning «28» _avgust_ 20_23_ yil soat _11:00_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (993873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_291_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 20__ yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(20 __ yil «____» _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n., dosent

A.B.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

<div align="center">

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)
Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

</div>

Dunyo tilshunosligida keyingi vaqtlarda inson nutqi va uning yozma ko'rinishi sifatida matnning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish, matnni kommunikativ, semantik-struktur va antroposentrik aspektlarda tadqiq etish ommalashdi. Inson nutqini lingvokulturologik muammolar doirasida o'rganish va talqin qilish markaziy masalalardan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, tilning jamiyatdagi o'rni nafaqat aloqa-aralashuv vositasi, balki ta'sir etish vositasi ekanligida ham ko'zga tashlanadi. Tilning asosiy vazifalaridan biri – ta'sir etish funksiyasi nutqiy jihatdan fikrning izchil ifodaviyligi, tasviriy va ta'siriy vositalardan foydalanish imkoniyatlari qolaversa, nutqning sintaktik kompozitsiyasi qanday shakllantirilganligi bilan baholanadi. Zero, nutq muallifining kommunikativ maqsadi, ichki his-tuyg'ularini emotsional-ekspressiv tarzda ifoda etish orqali adresatga ta'sir qilinadi va shu asnoda ijtimoiy hayot va borliq haqidagi tasavvurlarining kengayishiga olib keladi, voqelikni adresant nigohi bilan ko'rishga erishiladi. Nutqning shakllanish qonuniyatlarini o'rganish, uning sintaktik kompozitsion tadqiqi keng ma'noda bugungi kunda dunyo tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasining kengayishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon tilshunosligida nutqning shakllanish muammolariga oid tadqiqotlar sintaktik-kompozitsion va semantik-funksional tahlil metodlari asosida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda inson nutqini sotsiolingvistika va nutq madaniyati sohalarining kesishuvida tadqiq etish an'anaga aylanib ulgurdi. Buning natijasida tilshunoslikda badiiy nutq tizimini u yoki bu jihatdan o'rganuvchi sohalar rivojlanib bormoqda. Mazkur tadqiqotimiz ham ana shunday izlanishlar doirasida bo'lib, sintaktik sath muammolari, jumladan, nutqning shakllanish masalalarini o'rganish lingvistik tadqiqotlar doirasida muammoning nazariy jihatlarini to'liq asoslash uchun xizmat qiladi.

O'zbek tili ifoda imkoniyatlarini aniqlashda har bir ilmiy-tadqiqot ishining alohida o'rni bor. O'zbek tilshunosligida bu borada salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan, xususan, sintaksis sohasidagi tadqiqotlarda tilimizning boy ifoda imkoniyatlarini asoslash va talqin etishda ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Mazkur tadqiqotlar kelgusida bu sohada amalga oshiriladigan ishlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilab berish bilan birga, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini yanada keng va atroflicha o'rganish zaruratini ham ko'rsatib berdi. Nutqning lingvistik tabiatini, uning sintaktik xususiyatlarini zamonaviy ilmiy-tadqiqot mezonlari asosida o'rganish zaruriyati kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi. Hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitida ham tilimizning qo'llanish doirasini har tomonlama kengaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, "o'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish choralarini ko'rish"[1] masalasi dolzarb bo'lib turibdi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПФ-6084-сонли Фармони. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 21 октябрь, 221-сон.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida ta'lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar haqida to'xtalar ekan, "ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimiz" (o'zbek tili) haqida ham to'xtalib o'tdi: "Milliy o'zligimizning timsoli bo'lgan, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda ham chet tilini bilish kerak, bu ham hozir zamon talabi. Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak. Majbur!"[2] Bu esa, o'z navbatida, tilshunoslar zimmasiga o'zbek tili bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish, tilimizning lisoniy xususiyatlarini keng va atroflicha o'rganish, jahon ilmiy-tadqiqot standartlari asosida o'zbek tili ifoda imkoniyatlarini keng yoritib berish vazifasini yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli, 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5850-sonli, 2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni va Farmonlarining qabul qilinishi mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur Dissertatsiyada bildirilgan fikr-mulohazalar manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sintaktik kompozitsiya masalasi qadimdan falsafa, mantiq, notiqlik san'ati, filologiya sohalari bilan shug'ullanib kelgan olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Jumladan, uning kommunikativ vazifasi, kompozitsion qurilishi, uni tashkil etuvchi qismlarning struktural-semantik hamda stilistik xususiyatlari kabi masalalar antik davrlarga borib taqaladi. Sintaktik kompozitsiya bo'yicha dastlabki ma'lumotlar Sitseron asarlarida uchraydi. Sitseron fikrning mantiqiy izchilligini ta'minlash uchun sintaktik kompozitsiyani to'g'ri yarata olish, bunda nimalarga e'tibor qaratish zarurligini qayd etib o'tadi.

Bundan tashqari, kompozitsiya va uning qismlari V.V.Vinogradov, V.G.Vlasov, Apollon, E.A.Kibrik, E.V.Raxilina, Ya.G.Testeles, E.I.Bogomolova, T.K.Jarov, M.M.Kedrova, L.B.Alberti, V.P.Zubov, N.N.Volkov, V.M.Moshkov, V.I.Muxinoy, A.D.Goncharov, S.Levandovskiy, V.A.Favorskiy,

P.Ya.Pavlinov[3] tomonidan, sintaktik kompozitsiya esa jahon tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida M.N.Nikonova, L.Ya.Ginzburg, O.S.Zavyalova, N.V.Korjikova, E.S.Solodova, E.A.Referovskaya, G.Ya.Solganik, S.S.Odintsova, N.A.Yushina, M.M. Baxtin[4] tomonidan maxsus oʻrganilgan.

Hozirgi oʻzbek tilshunosligida sintaktik kompozitsiyaning semantik va struktur tomonlari, kommunikativ vazifalari boʻyicha maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu oʻrinda taʼkidlash mumkinki, sintaktik kompozitsiya haqida matnning eng yirik birligi hisoblangan supersintaktik butunliklar va poetik nutq tadqiqi doirasida A.Mamajonov hamda M.Abdupattoyevlar[5] tomonidan dastlabki fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Fargʻona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Lingvokulturologiya va matn tilshunosligi" yoʻnalishi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi nutq sintaktik kompozitsiyasi va uning kommunikativ, semantik, funksional jihatdan tasnifini yaratish hamda oʻzbek tili materiallari asosida tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi. Jumladan:

lingvistik kategoriya sifatida sintaktik kompozitsiyaning aniq tasnifini yaratish;

---

[3] Власов В.Г. Теория формообразования в изобразительном искусстве. Учебник для вузов. – СПб.:Изд-во С-петерб.ун.та, 2017. – с.90. Власов В.Г. Композиция// Новый энциклопедический словарь изобразительного искусства. В 10 т. – СПб.: Азбука-классика. – Т. IV, 2006. – 565. Власов В.Г.Архитектурная композиция: Опыт типологичекого моделирования // Архитектон: известия вузов. – 2012. – № 3(39). – URL: http://archvuz.ru/2012_3/1 Архивная копия от 22 января 2013 на Wayback Machine. Аполлон. Изобразительное и декоративное искусство. Архитектура. Терминологический словарь. – М.: НИИ теории и истории изобразителных искусств РАХ – Эллис Лак, 1997. – С.269. Кибрик Е.А. Типология и теория языка: от описания к объяснению: К 60-летию А.Е.Кибрика./ Ред. Рахилина Е.В.,Тестелец Я.Г., М.: Языки русской културы, 1999. – 640 с. Богомолова Е.И., Жаров Т.К., Кедрова М.М. Пособие по литературе для слушателей подготовительных отделений высших учебных заведений. – М.: Высшая школа, 1986. – С.399-400. Альберти Л.Б. Десять книг о зодчестве: В двух томах. – М.:Издательство Всесоюзной академии архитектуры 1935-1937. Перевод В.П.Зубов – Т.1.Кн шестая. Глава вторая. –С.178. Волков Н.Н. Композиция в живописи. – М.: Искусство, 1977. – С.13. Мошков В.М. К вопросу о формальных структурах в композиции монументально-лекоративной росписи// Композиция в промышленном и декоративно-прикладном искусстве. Сборник статей. – Л.:ЛВХПУ им. В.И.Мухиной, 1973. – С.16. Гончаров А.Д. О композиции // Художник. 1981, № 6. – С. 34-37. Гончаров А.Д. Художник и книга. М., 1964. Левандовский С. О сюжете и композиции.1981, № 4.–С.58-61. Фаворский В.А. Воспоминания современников. Письма художника. Стенограммы выступлений. – М.: Книга, 1991. Павлинов П.Я. Для тех, кто рисует: советы художника. – М.: Советский художник, 1965. – С.69

[4] Никонова М.Н. Теория текста: учеб. пособие / М.Н. Никонова. – Омск: Изд-во ОмГТУ, 2008. – 240 с. Виноградов В.В. К построению теории поэтического языка// Русская словесность. Антология. - М., 1997. Виноградов В.В. О теории художественной речи. 2-е изд., испр. М., 2005. – С.176. Гинзбург Л.Я. О лирике. - М., 1974. Завяльова О.С. Композиционно-синтаксический анализ как метод изучения художественного текста. – М., 2001. Коржикова Н.В. Приёмы композиционно-синтаксического анализа дискурса. АДД – М.,2005. Солодова Е.С.Лингвокогнитивные характеристики композиции текста английских сказок Дж.К. Роулинг. Авторф. дисс. канд. филолог. наук. Харьков. 2008. – С.24. Реферовская Е.А.Лингвистические исследования структуры текста. Л., «Наука», 1983. – С.69. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М., 1979. – С.102. Одинцова С.С. Особенности синтаксического построения связного текста. Л., 1984, – С.18. Юшина Н.А. Абзац его структурно-семантические типы и функционирование их в произведениях. М. 1972, – С.16. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1986.

[5]Мамажонов А, Абдупаттоев М. Матн назарияси. Фарғона, 2016. – Б.12 Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. док. дисс... Фарғона, 2021. – Б.226

7

sintaktik-kompozitsion birliklarni aniqlash va ularning lisoniy belgi-xususiyatlarini tahlil etish;

sintaktik-kompozitsion qismlar o‘rtasidagi sintaktik va mazmuniy munosabat turlarini aniqlash;

aktual bo‘linishning sintaktik kompozitsiya shakllanishiga ta’siri va ularning o‘zaro munosabatini yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek badiiy va publisistik nutqidan olingan parchalar – yirik sintaktik butunliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini nutq sintaktik kompozitsiyasi va uning kommunikativ, semantik va funksional tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ishda tasniflash, tavsiflash, tasviriy, komponent tahlillardan, oppozitiv, qiyosiy va o‘rni bilan pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sintaktik kompozitsiyaning nutqni mantiqan shakllantiruvchi hamda fikrni tartibga soluvchi lingvistik kategoriya sifatidagi semantik-sintaktik belgi-xususiyatlari ochib berilgan;

nutqning yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omil uning kompozitsion qismlarga ega ekanligi bilan bog‘liqligi, nutq kompozitsiyasi asosan uch – bosh (kirish), asosiy qism (fikrlar rivoji) va yakun (xulosa) qismlardan tashkil topishi isbotlangan;

boshlanma nutq kompozitsiyasining kirish qismi hisoblanishi va nitqning semantik yadrosini tashkil etishi, fikr rivoji yangi axborotni ifoda etuvchi asosiy qism ekanligi, tugallanma fikrni xulosalovchi nutqiy kategoriya sifatida o‘zbek badiiy nutqidan olingan misollar bilan dalillangan;

aktual bo‘linish nutq sintaktik kompozitsiyasini to‘liq shakllantiruvchi asosiy vositalaridan biri ekanligi, aktual bo‘linish birliklari – tema va remaning nutqning shakllanishidagi vazifalari hamda ularning o‘zaro semantik va sintaktik bog‘lanishlari izohlangan;

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sintaktik kompozitsiyaning nutq shakllanishida alohida o‘rin tutuvchi logik-lingvistik kategoriya ekanligi lisoniy dalillar yordamida isbotlangan;

sintaktik kompozitsiyaga struktur tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilib, uning talqini yaratilgan;

sintaktik kompozitsiyaning tarkibiy qismlari hisoblangan boshlanma, fikr rivoji va tugallanmaning semantik-funksional, kommunikativ-pragmatik, lingvostilistik belgilari yoritib berilgan;

aktual bo‘linish va sintaktik kompozitsiya munosabati aniqlangan;

temaning sintaktik kompozitsiya asosi ekanligi, remaning sintaktik kompozitsiya shakllanishidagi o‘rni hamda mavqei belgilangan va izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib chiqilayotgan masalalarning aniqligi, g‘oyalarning an’anaviy tilshunoslik qonuniyatlariga zid emasligi, to‘g‘ri izohlanganligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi,

tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili sintaktik sathini yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitadi, sintaktik kompozitsiya tushunchasining to'liq va aniq ta'rifini beradi, nutqning shakllanish qonuniyatlarini yangi nazariy fikrlar bilan to'ldiradi. Tadqiqotning ilmiy natijalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida bakalavriat va magistratura yo'nalishi talabalariga "Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis), "Tilshunoslik nazariyasi", "Uslubshunoslik", "Matn lingvistikasi" fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalaridan darsliklar, badiiy nutq masalalariga bag'ishlangan monografiyalar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada erishilgan natijalar asosida:

sintaktik kompozitsiyaning nutqni mantiqan shakllantiruvchi hamda fikrni tartibga soluvchi lingvistik kategoriya sifatidagi semantik-sintaktik belgi-xususiyatlari bo'yicha berilgan xulosa va tavsiyalardan "Matn tilshunosligi" darsligida keng foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-son buyrug'iga asosan 237-317-raqamli ruxsatnoma). Natijada nutqning sintaktik xususiyatlari bo'yicha berilgan ilmiy ma'lumotlar darslikning ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashishi uchun manba bo'lib xizmat qilgan;

nutqning yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omil uning kompozitsion qismlarga ega ekanligi bilan bog'liqligi, nutq kompozitsiyasi asosan uch – bosh (kirish), asosiy qism (fikrlar rivoji) va yakun (xulosa) qismlardan tashkil topishi isbotlanganligi yuzasidan chiqarilgan xulosalardan Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining 2022-2023-yillarda efirga uzatilgan "Ochiq muloqot", "Abadiy muhit", "Maxsus reportaj", "Jarayon" ko'rsatuvlarida keng foydalanilgan (Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-yanvardagi 187-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan va ilmiyligi ortgan;

boshlanma nutq kompozitsiyasining kirish qismi hisoblanishi va nutqning semantik yadrosini tashkil etishi, fikr rivoji yangi axborotni ifoda etuvchi asosiy qism ekanligi, tugallanma fikrni xulosalovchi nutqiy kategoriya sifatida o'zbek badiiy nutqidan olingan misollar bilan dalillangan ilmiy qarashlar va xulosalardan "Lingvopoetika asoslari" darsligida keng foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 22-avgustdagi 284-son buyrug'iga asosan Farg'ona davlat universitetining 2022-yil 23-dekabrdagi 586-son buyrug'i bilan berilgan 342-006 raqamli ruxsatnoma). Natijada nutqning sintaktik kompozitsiyasi bo'yicha berilgan ilmiy ma'lumotlar darslikning ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashishi uchun manba bo'lib xizmat qilgan;

aktual bo'linish nutq sintaktik kompozitsiyasini to'liq shakllantiruvchi asosiy vositalaridan biri ekanligi, aktual bo'linish birliklari – tema va remaning nutqning shakllanishidagi vazifalari hamda ularning o'zaro semantik va sintaktik bog'lanishlari izohlanganligiga oid ilmiy qarashlari va xulosalaridan

2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti FA-043429-raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 03.04.2023-yil 154/1-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan va ilmiyligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va Dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Sintaktik kompozitsiyaning struktur-semantik xususiyatlari"** deb nomlanib, sintaktik kompozitsiyaning logik-lingvistik kategoriya ekanligi izohlangan. Nutq jarayonida kommunikatsiya mexanizmining yirik vositalari – o'zaro semantik va grammatik aloqadorlikda ketma-ket qo'llanuvchi nisbiy mustaqil gaplar orqali shakllanadi. Bunday gaplar mazmuniy izchillik qonuniyati asosida nutqni shakllantiradi. Nutqning sintaktik konstruksiya sifatida reallashuvi o'z qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar nutqni ham shakliy, ham semantik belgilari jihatdan o'ziga xosligini ko'rsatib turadi.

"Kompozitsiya " lotincha so'z bo'lib, "birlik", "tuzilish", "yaxlitlik" hamda "o'zaro bog'liqlik" degan ma'nolarni bildiradi. Umuman olganda, qismlarning butunlikka bog'liqligini ta'minlovchi sifatlar kompozitsiyani tashkil qiladi. Kompozitsiya atamasining ma'nosi juda keng bo'lib, fanning deyarli barcha sohalarida ishlatiladi. Umumiy ma'noda kompozitsiya badiiy ijodning asosiy belgilaridan biri sifatida, eng murakkab va mukammal tuzilish turidir[6].

---

[6] Власов В.Г. Теория формообразования в изобразительном искусстве. Учебник для вузов. – СПб.:Изд-во С-петерб.ун.та,2017. – С.90

Kompozitsiyaning asl ta'rifi haqida bir qancha fikrlar mavjud, umuman kompozitsiya, bu – chalkashliksiz, xilma-xillik, soddalik, ulug'vorlik, aniqlik, ortiqcha detallarning bo'lmasligi hamda barcha qismlarning birgalikda ketma-ket joylashuvidir[7].

Rus olimi psixolog N.N.Volkov ta'rifiga ko'ra, kompozitsiya – ma'no uchun qurilish, ijodiy jarayon[8], S.M.Daniyelning ta'rificha, kompozitsiya – yuzaga kelayotgan fikrlarni tartibga soluvchi bir asosdir[9].

Bundan tashqari, "fikr mohiyatiga xos bo'lgan konstruktiv g'oya kompozitsiyaning amaliy asosini beradi. Kompozitsiya shakl va mazmunni yaxlitlikda ifodalashning muhim vositasidir"[10].

Kompozitsiya – yaratilajak barcha badiiy asar uchun "materiallarni" tashkillashtirish vositasi hamdir[11].

Kompozitsiya haqida aytilgan yuqoridagi fikrlar juda ham asoslidir. Demak, kompozitsiya ma'lum bir ifodaviy tuzilma tarkibidagi qismlarni bir-biriga mantiqan bog'laydi, umumlashtirib, yaxlitlaydi hamda shaklni ta'minlaydi, mazmunni ravshanlashtiradi.Shunday qilib, kompozitsion ishlov orqali mazmun va shakl birligiga erishiladi.

Kompozitsiya atamasi dastlab tasviriy san'atda qo'llangan bo'lib, bu – ixtiro, tasavvur erkinligi, badiiy iroda harakatidir[12].

Bundan tashqari, arxitektura sohasida ham kompozitsiya atamasi mavjud bo'lib, olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan, ya'ni me'moriy kompozitsiya bino tuzilishini badiiy va xayolan ko'rib chiqish natijasida kelib chiqadigan elementlarning mazmuniy yaxlitligini ifodalaydi[13] desa, ba'zi olimlar tomonidan bu – umumiy birlik va uyg'unlikka erishish uchun me'moriy elementlarni tartibga solish hamda tarkibiy yaxlitlashdir[14], degan ta'riflar aytib o'tiladi.

Adabiyotda kompozitsiya – badiiy asarning qurilishi, badiiy shaklning o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni, ishning maqsadi hamda muallif niyati ifodasidir[15].

Asardagi shakl va mazmun materialni o'zlashtirishdagi "kurash" jarayonini yuzaga keltirgan dialektik birlikdir. Asar mazmuni bir paytning o'zida uning

[7] Хогарт У. Анализ красоты. – Л.: Искусство, 1987. – С.144
[8] Волков Н.Н. Композиция в живописи. – М.: Искусство, 1977. – С.13
[9] Даниэль С.М. Картина классической эпохи: Проблема композиции в западноевропейской живописи XVII века. – Л.: Искусство, 1986. – С.122
[10] Oriental Renaissanse: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. Volume 2/ ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947
[11] Кибрик Е.А. Типология и теория языка: от описания к объяснению: К 60-летию А.Е.Кибрика./ Ред. Е.В.Рахилина, Я.Г.Тестелец. М.: Языки русской културы, 1999. – 640 с.
[12] Альберти Л.Б. Десять книг о зодчестве: В двух томах. – М.:Издательство Всесоюзной академии архитектуры 1935-1937.Перевод В.П.Зубова – Т.1.Кн шестая. Глава вторая. –С.178
[13] Некрасов А.И. Теория архитектуры. – М.: Стройиздат, 1994. – С. 41-42
[14] Шумилкин С.М., Дергунов В.И., Шумилкина Т.В.,Чигин Е.Н. Начало архитектурной композиции. Методическая разработка по архитектурной композиции для студентов 1 курса направления "Архитектура". – Нижний Новгород: ННГАСУ, 2005.
[15] Аполлон. Изобразительное и декоративное искусство. Архитектура. Терминологический словарь. – М.: НИИ теории и истории изобразителных искусств РАХ – Эллис Лак, 1997. – С.269

shakliy tomoni hamdir, chunonchi san'at asari tarkibidagi shakliy elementlarning barchasi uning mazmunidir[16], degan ta'rifni beradi.

Bundan tashqari, adabiy asardagi badiiy tasvirning muayyan shakllarini yagona va yaxlit tizimidir[17].

Kompozitsiya atamasi keng ma'noda qo'llanilib, tasviriy san'atda ham o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ya'ni kompozitsiya – rasmning to'liq, bir butun holda shakllanishi hamda mana shu shakllarning semantik birligini[18] muvofiqlashtiradi.

Musiqadagi kompozitsiya – musiqiy mavzularni yaratish tamoyillari, ularni rivojlantirishda ko'p ovozli musiqa vositalaridan unumli foydalanish yo'llari, muayyan musiqa janri, tur va uslublarning xususiyatlari, asarlar tuzilishi va tugal shaklga keltirilish qonun-qoidalarini shakllantiruvchi vositadir[19].

Rejissyorlikda kompozitsiya – sahnadagi epizodlarning holatlari hamda spektakllarda butunlarni qismlarga ajratish va joylashtirishdir[20].

Matematika kompozitsiyasi – raqamlar tarkibi, ya'ni natural sonlar nazariyasidagi natural atamalarning tartibli yig'indisi sifatida ifodalanishidir[21].

Shaxmat kompozitsiyasi – shaxmat muammolari va tadqiqotlarini yaratishdir. U amaliy o'yin vositalari va qoidalariga asoslanadi hamda mustaqil ijodkorlik shakli hisoblanadi[22].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, kompozitsiya har qanday nutqning asosiy elementlaridan biridir. Muallifning ijodiy maqsadini bildiradi va shuning uchun ham mualliflik ko'rinishlaridan biri sifatida ishlaydi. Badiiy adabiyotda kompozitsiyaning o'rni qanchalik ahamiyatli bo'lsa, tilshunoslik uchun ham shunchalik muhim sanaladi. Shunday qilib, tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslar tilshunoslardan ko'ra kompozitsiya masalalari bilan ko'proq shug'ullangani ko'zga tashlandi.

Hozirgi vaqtda til tizimini modellashtirish yo'nalishida faol rivojlanayotgan grammatika doirasida sintaktik kompozitsiya masalalarini o'rganish va tatbiq qilish muhimdir. Bunda kompozitsiya deganda kommunikativ va semantik mazmuni til vositasida ifodalanadigan konstruksiya tushuniladi[23].

---

[16] Каган М.Культура как саморазвивающаяся система.// Кармин А.С. Основы культурологии: морфология културы. – СПб., 1997. – С.465-487

[17] Богомолова Е.И., Жаров Т.К., Кедрова М.М. Пособие по литературе для слушателей подготовительных отделений высших учебных заведений. – М.: Высшая школа, 1986. – С.399-400

[18] Даниэль С.М. Картина классической эпохи: Проблема композиции в западноевропейской живописи XVII века. – Л.: Искусство, 1986. – С.6

[19] Сахновский В.Г. Композиция спектакля. Режиссура и методика преподавания: учебник. – Репринт 1939. – М:, Изд-во Юрайт. – С.50

[20] Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor.VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7

[21] Кострикин А.И. Введение в алгебру. Часть 1. Основы алгебры. –3-е изд. – М.: ФИЗМАТЛИТ, 2004. – 272 с

[22] Кодекс шахматной композиции. Архивная копия/ от 7 июня 2011 Wayback Machine (англ)

[23] Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидирова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. М., 2004. – С.450

Kommunikativ-funksional grammatika doirasida sintaktik kompozitsiya nutqning turli kompozitsion shakllari – kommunikativ registlarning almashinishi va o‘zaro ta’siri bilan tashkil etiladi[24].

Kommunikativ-pragmatik yondashuv muallifning niyati va uni qabul qiluvchi tomonidan talqin qilinishi, ya’ni u ishlash uchun mo‘ljallangan muloqotning haqiqiy tuzilishini hisobga olgan holda o‘rganish imkonini beradi[25].

Rus tilshunosi G.A.Zolotova tomonidan yaratilgan kommunikativ registrlar til tizimi vositalarini tizimlashtiradi hamda jumlalarni tuzish funksiyalarini bajaradi.

Tilshunoslik tadqiqot obyekti sifatida sintaktik tarkib tushunchasi dastlab V.V.Vinogradov[26] asarlarida yoritilgan. Keyinchalik E.A.Ivanchikovning ilmiy qarashlarida ham sintaktik kompozitsiya tushunchasi haqida ma’lumotlar keltirilgan[27]. Uning fikricha, “sintaktik kompozitsiyani tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan juda murakkabdir, chunki u ko‘plab dolzarb masalalarni hal qilishni talab qiladi: nutq sintaktik tahlilning izohli birligi sifatida, bu birliklarni nutqning bir qismi sifatida ham, butun nutqiy ko‘rinish sifatida ham birlashtirish usullarini qamrab oladi.

Sintaktik kompozitsiya va uning birliklarini aniqlash hamda lingvistik tadqiq etishning bir qancha omillari mavjud.

To‘liq tugallangan nutq ko‘rinishlarining boshqa kommunikativ birliklardan farqi, eng avvalo, fikrning to‘liq-tugal ifoda etilishida ko‘rinadi. Ular orqali ifoda etilgan fikr ma’lum bir obyekt tasvirida yoki ma’lum bir axborotni ifoda etishda kengligi va barcha tafsilotlarning to‘liq uzatilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonda fikrga oid ma’lumotlar ketma-ketligi, uzatilishi, tartiblanishi, izchilligi, muallif tomonidan ma’lum bir uzviylikning ta’minlanishi kabi mantiqiy va lisoniy faktorlar nutq yaxlitligini, tushunarli bo‘lishini va ifodaning badiiy-estetik qimmatini belgilaydi. Ana shu uzviylik va mantiqiy ketma-ketlik nutqning sintaktik kompozitsiyasini belgilaydi.

Sintaktik kompozitsiya masalasi qadimdan falsafa, mantiq, notiqlik san’ati, filologiya sohalari bilan shug‘ullanib kelgan olimlar diqqatini o‘ziga tortgan. Rus tilshunosi M.N.Nikonovaning ta’kidlashicha, nutqning sintaktik kompozitsiyasi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar antik davr faylasufi Sitseron asarlarida uchraydi. Sitseron fikrni ma’lum bir tartibda va mantiqiy izchillikda ifoda etishda uning sintaktik kompozitsiyasini to‘g‘ri yarata olish va bunda nimalarga e’tibor qaratish lozimligi haqidagi ko‘rsatmalarida bir qator mulohazalarini keltirib o‘tadi[28]. M.N.Nikonova esa “Nutq mazmuni va uning strukturasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik sintaktik kompozitsiyani shakllantiradi”[29], deya ta’rif beradi. Jahon tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida nutqning kompozitsion-sintaktik

---

[24] Коржикова Н.В. Приемы композиционно-синтаксического анализа дискурса травелого. Вестник Северо-Восточного федерального университета имени. 2020. (4). С.– 54-71

[25] Коржикова Н.В. Ўша мақола.

[26] Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. М.,1980

[27] Иванчикова Е.А. Синтаксис художественной прозы Достоевского.Изд. стереотип. URSS. 2021. 290с

[28] Никонова М.Н. Теория текста: учеб.пособие – Омск: Изд-во ОмГТУ, 2008. – 240 с.

[29] Никонова М.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 27

tuzilishi bo'yicha diqqatga sazovor ishlar mavjud[30]. Hozirgi zamonaviy tilshunosligimizda ham nutqning mazmun-mundarijasi va nutq kompozitsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, o'zbek tilshunosligida prozaik nutq (matn)ning eng yirik birligi hisoblangan supersintaktik butunliklar misolida[31] va poetik nutq tadqiqida sintaktik kompozitsiya masalalari o'rganilgan[32].

Nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishini o'rganish uni semantik-struktur va funksional jihatdan baholash demakdir. "Nutqning sintaktik kompozitsiyasi deyilganda, nutq tarkibiga kiruvchi qismlarning tartibli joylashuvi, fikrning izchil rivojlanib borishi, mana shu izchillikni ifoda etuvchi til va nutq birliklarining muayyan mantiqiy ketma-ketlikda joylashuvi va badiiy jihatdan ifodali qo'llanishi tushuniladi"[33]. Kompozitsion-sintaktik tarkib lisoniy birliklarning bir necha usulda qo'llanishi natijasida hosil qilinadi. Tilshunoslar tomonidan badiiy asarning kompozitsion-sintaktik tarkibini yaratish uchun muallif tomonidan takrorlash, kuchaytirish, qayta ishlash (bu o'rinda oldingi fikrga qaytgan holda, fikrni rivojlantirish nazarda tutiladi) usullari qo'llaniladi. Kompozitsion-sintaktik tarkib asarning shakl-shamoyilini gavdalantiradi. Lingvistikada nutqning kompozitsiyasi, ya'ni jumlani tashkil etgan so'z, birikma, gap, frazalar, uslubiy vositalar qurilish materiali sifatida ishtirok etgan boshqa birliklar va ularning funksional vazifalari o'rganiladi. Nutqning kompozitsion-sintaktik tahlili nutqni lingvistik kategoriyalar bo'yicha baholashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, nutqni to'g'ri shakllantirish va ma'lumotni aniq yetkazishda sintaktik kompozitsiyaning o'rni muhimdir. Tilshunoslikda kompozitsiyani har bir sath uchun tatbiq etish mumkin. Jumladan, semantik kompozitsiya, morfologik kompozitsiya va sintaktik kompozitsiyadir. So'zni tashkil etgan tovushlarning ketma-ket tuzilishini tartibga soluvchi kategoriya semantik kompozitsiyadir. So'zdagi morfemik tarkibning shakllanishida ham kompozitsiyaning o'rni muhimdir. Masalan; o'zbek tilida o'zak doimo so'zninig oldingi qismida keladi, sintaktik munosabat ifoda etuvchi qo'shimchalar shakl yasovchi qo'shimchalardan oldin qo'llanmaydi. So'z birikmalarida bosh va ergash so'zning o'rinlashuvi, gapda bo'laklarning tartiblanishida ham o'ziga xos kompozitsion qonuniyatlarga amal qilinadi. Qo'shma gap, supersintaktik butunlik, matnni tashkil etgan barcha birliklar ketma-ketligi, bir-biriga mantiqan bog'lanishini ta'minlaydigan lingvistik kategoriya ham sintaktik kompozitsiya sanaladi.

Nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishi ma'lum bir makon va zamon birligida uni tashkil etgan komponent-qismlar, sintaktik-stilistik figuralar, gaplar

[30] Виноградов В.В. К построению теории поэтического языка Русская словесность. Антология. – М., 1997. Гинзбург Л.Я. О лирике. – М., 1974. Завьялова О.С. Композиционно-синтаксический анализ как метод изучения художественного текста. – М.,2001. Коржикова Н.В. Приёмы композиционно-синтаксического анализа дискурса. АДД – М., 2005.
[31] Абдупаттоев М.Т. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НДА. – Т., 1998. – Б. 23.
[32] Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. док. дисс... Фарғона 2021. – Б. 226.
[33] Абдупаттоев М.Т. Поэтик нутқнинг композицион-синтактик қурилишида коммуникатив регистрларнинг ўрни // "Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзаб муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Андижон – 2021. – Б. 174-179.

va uni tashkil etuvchi vositalarning tartibli joylashishi asosida shakllanadi. Sintaktik kompozitsiya muallif ongida "sochilib yotgan" fikr-g'oyalarni tartibga soladi[34] va til vositalari yordamida ifodalanishi bilan murakkab sintaktik qurilma – nutq yaratiladi. Kompozitsiya alohida qismlardan butunlik hosil qiladi. Bunda nutqning mavzusi, sarlavhasi, nomlanishi, epigrafi, birinchi va oxirgi gapi muhim vazifa bajaradi.

Nutqning semantik-struktur bo'laklanishi doimo boshqa bir kategoriyadagi pragmatik va kompozitsion sintaktik bo'laklanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mazkur yondashuvlarning barchasida bir qonuniyatga – fikrning izchil rivojlanishi, fakt va ma'lumotlarning ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikda berilishiga amal qilinadi.

Sintaktik kompozitsiya haqida turli xil nazariyalar mavjud. Uning asosiy belgi-xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) Sintaktik kompozitsiya – bu nutq qismlari, elementlari va tasvirlarining joylashishi, o'zaro bog'liqligi, tasvirlangan va nutq vositalari birliklarini kiritish ketma-ketligidir.

2) Sintaktik kompozitsiya – badiiy nutqning qurilishi hamda barcha qismlarning mazmuni va shakliga ko'ra bir butunlikka bog'lashdir.

3) Sintaktik kompozitsiya – nutq qismlari mazmunini yoritish vositalarining ma'lum bir tizimi, nutqda ko'rsatilgan hayotiy jarayonni tavsiflash, ularning aloqa va munosabatlarini tashkil etish ketma -ketligi, fikr tartibidir.

Mazkur lingvistik tushunchalarning barchasi, mohiyatiga ko'ra, juda oddiy bo'lib, sintaktik kompozitsiya, bu – har qanday fikr bayonida uni tashkil etgan qism-elementlarning ma'lum bir mantiqiy tartibda joylashtirishdir. Bunda nutqning sintaktik butunlik sifatida ichki mantiqiy mazmunga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Kompozitsion-sintaktik tarkib nutqning shakl-shamoyilini gavdalantiradi. Lingvistikada nutqning kompozitsiyasi, ya'ni jumlani tashkil etgan so'z, birikma, gap, frazalar, uslubiy vositalar qurilish materiali sifatida ishtirok etgan boshqa birliklar va ularning funksional vazifalari o'rganiladi. Nutqning kompozitsion-sintaktik tahlili nutqni lingvistik kategoriyalar bo'yicha baholashda muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, sintaktik kompozitsiya murakkab va ko'p aspektli, lekin nutqni tinglovchi tomonidan osongina idrok etilishi uchun xizmat qiluvchi, nutqdagi mantiqiy uzviylikni ta'minlovchi hodisa hisoblanadi. Sintaktik kompozitsiya nutq qismlarini kommunikativ maqsad ifodasi uchun eng optimal tarzda joylashtirish, ularning o'zaro aloqa va munosabatlari aniq bir tartibda butunlikka biriktirish demakdir. Ya'ni sintaktik kompozitsiya badiiy shakl qismi emas, balki nutqning barcha komponentlarini bog'lab, uning shakliy va mazmuniy butunligini ta'minlaydigan qurilmadir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Sintaktik-kompozitsion qismlar tasnifi"** deb nomlangan bo'lib, bobning birinchi faslida sintaktik kompozitsiya qismlari va ularning asosiy belgi-xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

---

[34] Солодова Е.С. Лингвокогнитивные характеристики композиции текста английских сказок Дж.К. Роулинг. Авторф. дисс. канд. филолог. наук. Харьков. 2008. – С. 24

Nutqning kompozitsion-sintaktik qismlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib yanada kuchaydi. Rus tilshunos olimasi **Ye.A.Referovskaya sintaktik kompozitsiya** deyilganda, nutq asosiy qism-elementlarning tartibli joylashuvi tushunilishi lozimligini ta'kidlab, uning kirish, fikrning rivojlanishi va xotima kabi qismlardan iborat bo‘lishi mumkin[35], degan xulosaga kelsa, **G.Ya.Solganik** bunday sintaktik kompozitsiya boshlanma, fikr rivoji va tugallanma kabi asosiy uch qismdan iborat bo‘lishini alohida ta'kidlab o‘tadi[36]. Nutqning kompozitsion-sintaktik qismlari haqidagi fikrlarni boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ham uchratish mumkin[37]. Tadqiqotchi **N.A.Yushina** bunday qismlarni faqat abzasga nisbatan qo‘llaydi[38].

O‘zbek tilshunosligida **M.T.Abdupattoyev** yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlariga tayangan holda shunday xulosaga keladi: “.. she'riy asarlar – to‘rtliklar, ruboiylar va boshqa kichik hajmli asarlarning o‘zi birgina sintaktik butunlik (she'riy band)dan tashkil topgan holatlarda ham, ularning kompozitsion-sintaktik tuzilishi qismlari (boshlanma, fikr rivoji, tugallanma) ro‘y-rost ko‘zga tashlanadi. Zero, bir she'riy band bitta supersintaktik butunlik demakdir”[39].

Demak, nutqning sintaktik-kompozitsion qismlari sifatida boshlanma, fikr rivoji va tugallanmani qayd etgan holda, mazkur qismlarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

1.Boshlanma – semantik markazni tashkil etadi hamda shakliy jihatdan nutqning sarlavhali yoki sarlavhasiz nutqlarda birinchi satrini tashkil etgan gapga teng kelib, nutq mavzusini belgilaydi. Nutqning makon va zamonini ko‘rsatgan holda o‘zidan keyin kelgan barcha sintaktik qurilmalarni semantik jihatdan ham sintaktik jihatdan ham o‘ziga tobelantiradi.

2.Fikr rivoji – boshlanmada belgilangan mavzu fikrlar rivojida yoritiladi va kengaytiriladi. Nutqda belgilangan mavzuni bir qancha ketma-ket fikrlar yordamida oydinlashtirib, izohlaydi hamda boshlanmaning mazmunini ochib beradi.

3. Tugallanma –nutqning so‘nggi gapi (satri), ba'zan she'riy asarning so‘nggi bandi. Har qanday nutqning xotimasi hisoblanib, fikrga yakun yasash bilan birga uni ifoda etuvchi lisoniy va nutqiy vositalar tizimidir. Fikrni xulosalovchi, yakunlovchi va o‘zidan oldingi gaplar, qism-fragmentlar mazmunini konkretlashtiruvchi qism[40].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan sintaktik-kompozitsion qismlarni har qanday nutq ko‘rinishiga nisbatan tadbiq etish mumkin, ya'ni har qanday nutq ko‘rinishida mazkur qismlar xuddi shunday ketma-ketlikda joylashadi va tartiblanadi. Shu bilan

---

[35] Реферовская Е.А.Лингвистические исследования структуры текста. Л., «Наука», 1983.– С.69

[36] Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М., 1979. – С.102

[37] Абдуллаев Н.М. Теоритические проблемы синтаксиса азербайджанского языка. АДД. Баку-1984. – С.45 Одинцова С.С. Особенности синтаксического построения связного текста. Л., 1984. – С.18

[38] Юшина Н.А. Абзац его структурно-семантические типы и функционирование их в произведениях. М., 1972. – С.16

[39] Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси (Монография). Фарғона, 2021. – Б.53

[40] Мамажонов А., Абдупаттоев М. Ўзбек матнининг семантик, синтактик ва стилистик аспекти. Монография. Фарғона., “Классик”. 2021. – Б.152

birga, nutqda fikrning izchil rivojlanishi va tinglovchi (o'quvchi)ga axborotni ma'lum bir tartibda yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, bobning birinchi faslida sarlavha va uning semantik turlariga alohida to'xtalib, o'xshash va farqli jihatlarini misollar bilan dalilladik. Nutqning yaxlitligini ta'minlovchi asosiy shartlaridan biri – bu, uning kompozitsion qismlarga ega ekanligidir. Kompozitsion qismlarda s**arlavha** alohida o'rin tutadi. Sarlavha – bu maqola ustidagi boshlanma bo'lib, uning umumiy mazmunini umumlashtiradi. Sarlavha har qanday nutq ko'rinishining muhim qismi bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, har qanday faoliyatning boshlanishi va natijasini belgilaydi. G.Ya.Solganikning fikricha, "Sarlavha, boshlanish va tugallanish, ya'ni sintaktik kompozitsiya komponentlari deb atalishi bejiz emas: ular nutqning "tashqi aniqligini, to'liqligini, chegaralarini belgilashni nazarda tutadi va yaxlitligini ta'minlaydi"[41].

Lingvistik adabiyotlarda sarlavhaning eng to'liq ta'rifi haqida V.S.Mujev shunday deydi: "Sarlavha – nutqning nomi bo'lgan, nutq oldida turgan, ushbu nutqning mazmunini ko'rsatadigan va nutqning ushbu jihatini boshqalardan ajratib turadigan ajralmas birligidir"[42].

Rus olimasi E.A. Lazarevaning fikricha, sarlavhalar majmuasiga quyidagi ta'rifni beradi: *"sarlavhalar majmuasi"* nutq tizimidagi quyi tizim bo'lib, nutqdan tashqarida joylashgan elementlardan iborat. ... Bular ilg'or deb ataladigan elementlar bo'lib, ular mazmun jihatdan asosiy nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda ma'lum bir mustaqillikni, strukturaviy va nutqiy jihatdan nutqdan ajralishni saqlab qolishlari bilan birlashtiriladi"[43]. Demak, sarlavha bir paytning o'zida boshlanma funksiyasini ham bajaradi. Ular shakliy va mazmuniy jihatdan juda ko'p hollarda teng keladi.

Bundan tashqari ilmiy manbalarda[44] boshlanma-sarlavhalarning 19 xil turi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Izlanishlar natijasida sarlavhalarning semantik turini 29 ga yaqin turi borligini aniqladik va misollar bilan oydinlashtirdik.

Sarlavhalarning shakliy (struktural) tomonlari ham sintaktik kompozitsiyaning yuzaga kelishida o'ziga xos o'rin tutadi. Shuni hisobga olgan holda, sarlavhalarning strukturaviy jihatlarini ham 3 turga ajratib, ularni: so'z sarlavhalar, so'z birikmali sarlavhalar, gap sarlavhalar doirasida o'ziga xos tomonlarini o'rganib chiqdik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sarlavhalar ham nutqning bir qismi, matnning bir bo'lagi sifatida mazkur qurilmalarning sintaktik kompozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, sarlavhalar semantik jihatdan nutqning mazmuniy yadrosini, sintaktik kompozitsiyaning o'zagini tashkil etadi.

Bobning ikkinchi faslida kompozitsion-sintaktik tuzilishning boshlanma qismi haqida tushunchalar beriladi. Kompozitsion-sintaktik tuzilishning qismlari haqida M.M.Baxtin shunday fikrlarni aytadi: "...boshlanmalar va tugallanmalar –

---

[41] Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М.,1979. – С.102

[42] Мужев В.С. О. Функциях заголовков.М.: Моск.гос.пед.ин-т иностр. яз. им. М. Тореза, 1970, - Вип 55.

[43] Лазарева Э.А. Заголовок в газете. Екатеринбург.2004. 214 с

[44] https://www.indeed.com/career-advice/career-development/types-of-headlines

faoliyatning boshlanishi va yakunining mohiyatidir"[45]. Uning tasnifiga ko'ra, ular neytral va ifodali bo'lishi mumkin.

M.M.Baxtin kompozitsion-sintaktik tuzilishning faqatgina boshlanish va tugash holati haqida aytib o'tadi.

Neytral boshlanish (qattiq boshlanish) nutq predmetining mavjudligini tasdiqlaydi va tinglovchiga nutqning maqsadi haqida birma-bir xabar beradi. Bunday boshlanmada (mavzu, vaqt, makon) har bir toifaning kengayishi ketma-ket kelaveradi.

Mana shunday, o'rtoqlar! – dedi. – Burun zamonda bularga o'xshagan qarilar emas, hatto yoshlar ham har doim o'lim kutib, kechalari kalima o'girib yotar edi, aytmoqchi bo'lamanki, yashashdan ko'ra ko'proq o'lish to'g'risida o'ylar edi.

<div align="right">

A.Qahhor."To'y".

</div>

Asardan olingan mana bu parcha neytral boshlanish bo'lib, vaqt va zamon bilan bog'liq tushunchalarning ketma-ket kelishi bilan mavzuni ochib bermoqda. Ya'ni gapning nima haqida ekanligi mazkur parchada aniq ifodalanmoqda.

Ekspressiv boshlanish (yumshoq boshlanish) – bunday nutq ko'rinishida hech qanday izohlar, tushunchalar va vaqt, makon bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalarsiz nutqqa kirib boriladi. Bunday boshlanmada o'rtadan boshlab ifodalangan mazmun o'quvchiga hali ma'lum bo'lmagan voqea haqida savollar tug'diradi, o'quvchini javob izlashga undaydi.

Shu payt ko'chada birdan to'polon bo'lib qoldi. Nima gap ekan, deb hammalari baravar yugurib chiqishdi. Darvoza tagida qog'ozga o'rog'liq makaron sochilib yotar, Sodiq bo'lsa qandaydir bir notanish bola bilan mushtlashardi. Ular xuddi jo'jaxo'rozga o'xshab bir-birlariga tashlanishar, hansirashar, atrofda bo'lsa bolalar qichqirishardi.

<div align="right">

S.Zunnunova."Go'dak hidi".

</div>

Ushbu keltirilgan parchaning mazmuni, o'quvchini darhol savolga yuzlantiradi. Sodiq nima uchun janjallashmoqda, notanish bola kim, nega aynan Sodiq bilan mushtlashmoqda va h.

Misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlanishlarning har ikki turi ham o'quvchiga voqea haqida ma'lumot beradi, qaysiki o'sha voqeaning mavhum yoki aniq, real ifodalash bilan yetkazadi. Demak, neytral boshlanmada makon, zamon va vaqt bilan bog'liq har bir holat ketma-ket yoritiladi, ekspressiv boshlanmada esa to'g'ridan-to'g'ri nutqqa kirib boriladi.

Boshlanmalarning funksional-semantik (uslubiy-mazmuniy) xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni turlarga ajratdik va misollar bilan tahlil qildik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, nutq tarkibidagi boshlanmalarning semantik turlaridan ularning katta imkoniyatli, keng funksiyali gaplar ekanligini ko'rish mumkin. Bunday gaplarni kontekst ichida o'rganish o'zbek tilshunosligida rivojlanib kelayotgan mazmuniy sintaktik muammolarni hal qilishga yordam beradi va bu borada yangi tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

---

[45] Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1986.

Bizga ma'lumki, har qanday darajadagi, istalgan hajmdagi nutqning kompozitsiyasi uchta asosiy qismdan iborat bo'ladi: bosh (kirish), asosiy qism (fikrlar rivoji) va yakun (xulosa); ularning o'zaro bog'liqligining asosiy mezoni, birinchi navbatda, ularning funksionalligidir. Ular asosiy qismdagi ma'lumotlarni idrok etishni tashkil qilishadi. Sarlavha, boshlanish va tugallanish nutqiy qolip, ya'ni sintaktik kompozitsiya komponentlari deb atalishi bejiz emas: ular nutqning "tashqi aniqligini, to'liqligini, chegaralarini belgilashni nazarda tutadi va yaxlitligini ta'minlaydi" [46].

Kompozitsion-sintaktik jihatdan to'liq shakllangan nutqlardagi bu xususiyatlarning vazifalari turlichadir. Nutqdagi bu qoliplar yangi ma'lumotlarni berish bilan birga tematik va pragmatik ko'rsatmalarni ham ko'rsatadi. Birinchidan, "nutqning mavzusi va mazmuni bilan tanishishni o'z ichiga oladi, muammoni bayon qilish, uni ko'rib chiqish jihatini aniqlashtiradi". Ikkinchidan, u pragmatik funksiyani amalga oshiradi: tinglovchining nutq mazmuniga qiziqishini uyg'otadi, e'tiborini jalb qiladi, tinglovchilar bilan psixologik aloqa o'rnatish bilan ularni nutqning ma'lum bir ohangiga moslashishiga yordam beradi. Jumladan, jonli tasvirlar, paradoksal mulohazalar, muammoli savollar, adresatga murojaatlar, uning tajribasiga murojaat va hokazolar uchun yordam beradi[47].

Nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishida "qismlarni shunday (tartibda) joylashtirish kerakki, ular muallif fikr-g'oyasining aniq izchillikda ifoda etilishi uchun xizmat qilsin"[48]. Darhaqiqat, muallif g'oyasi va inson tafakkuri mahsuli bo'lgan asosiy fikr-tuyg'ularining izchil ifoda etilishi kompozitsion-sintaktik strukturaning qanchalar mukammal tuzilganligi bilan chambarchas bog'liq. Demak, nutq sintaktik strukturasi yaxlitligi va mazmuniy izchilligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri – bu, uning sintaktik-kompozitsion tuzilishga ega ekanligidir[49].

Bobning uchinchi fasli fikr rivoji va uning leksik-semantik xususiyatlari bo'lib, asosan, fikr rivojining semantik doiralarda aks etish holatlariga e'tibor qaratilgan.

Tilshunoslikda nutqning asosiy kompozitiv komponenti sifatida boshlanma qismiga ko'proq e'tibor qaratilib, fikrlar rivoji haqida esa ma'lumotlar juda ham ozchilikni tashkil etadi.

Haqiqatan ham, nutqda boshlanmaning roli benihoya katta, u boshqa qismlarga nisbatan hokim, qolgan qismlari esa doimo unga nisbatan tobedir. Ammo bu fakt qolgan komponentlar (fikr rivoji, tugallanma)ning nutq tarkibidagi funksiyasi va o'rnini aslo pasaytirmaydi.

Fikr rivojini tashkil etgan gaplarning turli variantlarda aks etish holatlarini ko'rib chiqdik va misollar bilan izohladik. Jumladan, boshlanmaning mazmunini ochib berishda fikrlar rivoji tarkibida kontekstual sinonimlarning – ma'nosi bir-biriga yaqin turuvchi, bir-birini to'ldiruvchi leksemalarning ishlatilishi o'ziga xosdir:

[46] Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М.,1979. – С.102

[47] Ўша асар. – С.142

[48]Гинзбург Л.Я. О лирике. - М., 1974. – С.47

[49] Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол.фан. док.дис. – Фарғона. – 2021. – Б. 66

To'y ikki yoshning, ikki xonadonninggina emas, ikki mahalla, butun yor-do'stlarining to'yi bo'ldi. Yer va tomlarni odam, bola-chaqa bosib ketadi. Xursand bo'lmagan odam yo'q edi. Ashula, yalla, o'yin, askiya, qiziqchilik, gur-gur kulgi... Bularni oralab yor-do'stlar yoshlarga eng yaxshi tilaklar tilashar edi. To'rga yaqin o'tirgan talabalar – Salimjonning o'rtoqlaridan biri Naimjon degan yigit so'z oldi.

A.Qahhor. "Muhayyo".

Ushbu gap tarkibida kelgan *yor, do'st, bola-chaqa, ashula, yalla, o'yin, askiya, qiziqchilik kabi* so'zlar mazmun-mohiyati bilan bir-birini to'ldirib, matn mazmunini shakllantirgan. *To'y* leksemasini to'ldiruvchi bu so'zlar fikrlar rivojida ifodalanib, to'liq, butun gapni tashkil qilgan. Fikrlar rivojini tashkil qiluvchi gaplar ko'tariluvchi intonatsiya bilan talaffuz qilinadi, ya'ni intonatsiya gapdan-gapga tomon ko'tarilib boradi. Yoki quyidagi misolda:

"Odamzodning fe'li g'alati, – deb o'yladi u, g'izillab ketayotgan avtobus derazasidan tashqariga tikilib borarkan. – Har narsaning oqibatini tekshirganda eng oson bahona topib qo'ya qoladi. Aybni o'zidan emas, boshqalardan qidiradi. Teatrda nega tomoshabin kam desangiz, televizor chiqib bozorimiz kasod bo'ldi, deyishadi. Tomoshabin bizni tushunmayapti, deb nolishadi. Odamlar sahnada o'ziga o'xshagan kishilarni ko'rmasa nima qilsin? O'zining yuragini o'rtab turgan narsalarni ko'rmasa nima qilsin? Bolasi o'lganida onasi tepasida turib ashula aytadigan muzikali dramani ko'rib qoyil qolsinmi?!"

O'.Hoshimov. "Nur borki, soya bor".

Nutq tarkibidagi fikrlar rivoji turli xil usullar yordamida yoritiladi. Yuqoridagi parchada ham teatrga tomoshabinlarning kelmasligiga televizorning chiqishi sabab sifatida ko'rsatilmoqda. Boshlanmada berilgan bu muammo so'roq mazmunidagi gaplar orqali fikrlar rivoji orqali yoritilmoqda. Bunday mazmundagi yoritilishlarda ko'proq tinglovchini chuqur mulohaza qilish, savollarga javob izlashga undaydi.

Shunga o'xshash fikrlar rivojining bir qancha semantik xususiyatlari, jumladan, shevaga xos so'zlar, so'roq mazmunidagi, hissiy ta'sirchanlik mazmunidagi, taxmin-gumon mazmunidagi hamda sodda gaplar, sanash ohangi bilan aytilgan gaplar, xalq maqollari va hikoya orqali boshlanmaning mazmunini ochib beruvchi fikrlar rivojini misollar bilan izohladik. Fikrlar rivojining bunday semantik turlari sintaktik kompozitsiyaning shakllanishi uchun muhim vositalardan biri, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sintaktik kompozitsiyaning qismlari sifatida boshlanma, fikrlar rivoji va tugallanmani e'tirof etish mumkin. Sababi, har qanday nutq tarkibida, dastlab fikr beriladi, u turli xil vositalar bilan shakllantiriladi va mazmuniy tugallik asosida yakun topadi.

Bobning uchinchi faslida tugallanma va uning lingvostilistik tadqiqiga e'tibor qaratilgan. M.M.Baxtin kompozitsion-sintaktik tuzilishning tugallanma qismiga shunday ta'rif beradi: tugash, siz bilganingizdek, nutqning "tematik va konseptual nuqtasi". U "odatda umumlashtiradi, xulosalarni aniq shakllantiradi, aytilganlar bo'yicha bir to'xtamga keladi, yangi vazifalar va hal qilinishi kerak

bo'lgan muammolarni belgilaydi, tinglovchilarning murojaatlarini o'z ichiga oladi va hokazo[50]”.

Darhaqiqat, tugallanma har qanday nutq ko'rinishining tugashi, muallif fikrining yakuni, xulosasi. Muallif tomonidan aytilgan oldingi fikrlarni konkretlashtiruvchi qismdir. Asar davomida boshlangan g'oya uning yakunida xulosalanadi. Fikrlar yakuni, ya'ni tugallanma turli xil semantik doiralarda aks etadi.

Ha, men yo'lga chiqishim kerak! Ha,keng dala bag'ridan o'tib, ovulimga boraman! Tug'ilib o'sgan yerim kuch-quvvatim! Men undan yangi-yangi bo'yoqlar topaman.Chizgan suratimning har bir bo'yog'idan, har bir lavhasidan Doniyorning kuyi eshitilib tursin! Chizgan suratimning har bir bo'yog'ida, har bir chizig'ida Jamilaning qalbi urib tursin.

<div align="right">Ch.Aytmatov. "Jamila".</div>

Ushbu keltirilgan parcha tarkibida muallif fikrining yakuni, xulosalari aynan keltirilgan. Muallif maqsadiga tugallanma orqali erishadi.

M.M.Baxtin kompozitsion-sintaktik tuzilishning tugallanma qismiga neytral tugatish xulosa, taxminni o'z ichiga oladi, fikrni "muhrlaydi", ya'ni nutqning mazmunini butunlay tugatadi, chiqishini yopadi, ekspressiv (ochiq) tugatishda esa nutq mazmuni tugatilmaydi, aksincha, hal qilinmagan holda qoldiradi[51], deya ta'rif berib o'tadi.

Darhaqiqat, bizningcha, ham nutqning tugallanma qismi neytral (yopiq) bo'lib, muallif tomonidan har bir voqeaning yakuni va xulosa qismi batafsil yoritiladi.

Misol: *Bugun ham havo ochiq.*

Nizomjon bilan Zebixon Dildorni kuzatib arava izi tushgan cho'l bo'ylab ketishyapti.

Ikromjon yo'l boshida qo'ltiqtayog'iga suyanib ularning orqasidan qarab qoldi.

Ufqda uch nuqta qoldi.

Bu – Nizomjon, bu – Dildor, bu – Zebixon.

Pardek yengil oppoq bulutlar cheti botayotgan oftob tig'ida xuddi kimxob parchadek lov-lov yonadi. Ikromjonning ko'zlarini qamashtiradi. Yonadi, yolqinlanadi.

<div align="right">S.Ahmad."Ufq".</div>

Yuqorida keltirilgan parchada muallif tomonidan har bitta personajni oxirgi holati batafsil berilmoqda. Demak, neytral tugallanma nutqni oxirgi vaziyatini ham ochib beradi.

Sintaktik-kompozitsiyada nutqning ekspressiv tugallanma qismida voqealar yakuni kitobxoning ixtiyoriga qoladi. Bunday tugallanmalar kitobxonni turli xil fikrlashga, izlanishga, turli fantaziyalarga berilishga chorlaydi. Shuning uchun ham bu turdagi tugallanmalarning badiiy-estetik qimmati yuqori bo'ladi.

---

[50] Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1986.
[51] Бахтин М.М. Ўша асар. – С. 57

Tugallanma mavzuning yakunlanishi, fikrning umumlashtirilishi, shu umumlashtirilgan fikrdan kelib chiquvchi umumiy hukmning aytilishi bilan izohlanadi. Tugallanma nutq tarkibidagi soʻnggi qism:

Bugun yangi kitobim chiqdi. Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, oltmish ming kitobning hammasini onamga bagʻishladim. Lekin...

O'.Hoshimov.“Dunyoning ishlari”.

Yuqorida keltirilgan parchada tugallanmaning ekspressiv (ochiq), ya'ni toʻliq yakunlanmagan qismi keltirilgan. Yangi kitobning chiqishi va onasiga bagʻishlanganligi aytib oʻtilgan. “Lekin...” deya muallifning toʻxtab qolgan fikri aslida nima haqida yoki yana kimga atalgani, onasining kitobni koʻrmagani haqida yozmoqchi boʻlganmi, degan bir qancha savollar tugʻiladi. Mana shu tarzdagi tugallanmalar fikrning xulosa qismini tinglovchi ixtiyoriga topshiradi. Har bir tinglovchi buni oʻziga xos tarzda, oʻz qarashi bilan xulosalaydi. Toʻliq tugallanmagan (yuqoridagi parchada keltirilgan) nutq orqali har qanday tinglovchi oʻzida tugʻilgan turli savollarga javob qidira boshlaydi. Natijada, bu holat tinglovchining yanada diqqatli va e'tiborli boʻlishi, shuningdek kuzatuvchanligini ham talab qiladi. Tugallanmaning bir qancha semantik turlarini aniqlab, ularning sintaktik kompozitsiyaning shakllanishida muhim vosita ekanligini misollar bilan oydinlashtirdik.

Nutq chegarasini belgilashda, ayniqsa, tugallanmaning vazifasi juda muhim, chunki tugallanma nutq muallifining ma'lum mikromavzu doirasidagi qat'iy xulosasiga teng keladi. Odatda, xulosalangan, ma'lum bir yechimni topgan mavzuga yana takror qaytilmaydi. Tugallanmadan keyin, albatta, mikromavzu oʻzgaradi. Demak, nutq sintaktik qurilmalarning kichik turlari (soʻz birikmasi, gap va uning turlari) kabi oʻzining tarkibiy qismlariga ega boʻlishi bilan birga, ulardan farqli oʻlaroq kompozitsion qismlarga ham ega. Uning kompozitsion qismlari (boshlanma, fikr rivoji, tugallanma) nutqning semantik-sintaktik butunlik sifatida mavjudligini koʻrsatib turuvchi tarkibiy qismlar sifatida ham ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning **“Sintaktik kompozitsiyaning aktuallik nuqtai nazaridan talqini”** deb nomlangan uchinchi bobida sintaktik kompozitsiyaning shakllanishidagi tema-rematik munosabatning semantik va uslubiy jihatlari yoritilgan.

Kuzatishlar natijasida shunga amin boʻldikki, mashhur rus tilshunoslari F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, A.V.Shcherba, V.V.Vinogradovning asarlarida ham nutqning ritmik-intonatsion tomoni hamda aktual boʻlinish masalalari haqida qimmatli fikrlar keltirilgan[52].

Gapning aktual boʻlinish nazariyasini maxsus lingvistik yoʻnalish sifatida oʻrgangan olim – V.Mateziusdir[53]. U XIX asr fransuz tilshunosi A.Veylning ayrim gʻoyalariga tayanib, aktual boʻlinish masalasini lingvistikaga doir ekanligini isbotladi. Uning fikricha, gap ikki qismdan iborat boʻlib, fikrning boshlanish nuqtasi – vaziyatdan ma'lum boʻlgan, oldingi nutq sharoitidan oson anglashilgan

[52] Нурмонов А ва б. Ўша асар. – Б.97
[53] Матезиус В. О так называемом актуальном членении продложении. “Пражский лингвистический кружок” М., 1967.

qismdan hamda gapdagi asosiy informatsiyani ifodalovchi kommunikativ markaz – qismdan tashkil topgan.

Bundan tashqari, rus tilshunosligida aktual boʻlinish masalasi bilan maxsus qiziqqan olimlardan K.G.Krushelnitskaya[54], I.P.Raspopov[55], I.I.Kovtunova[56], V.Z.Panfilovlarni ham koʻrsatish mumkin.

Sintaktik birliklarda aktual boʻlinish masalasi asrimizning 70-yillaridan boshlab, turkolog olimlar diqqatini torta boshladi. Bu oʻrinda R.S.Amirov, F.M.Agayeva, K.N.Valiyev kabilarning maqola va yirik tadqiqot ishlarini eslatib oʻtish joiz[57].

Oʻzbek tilshunosligida ham asrimizning 70-yillarida gapning kommunikativ aspekti, ya'ni aktual boʻlinishi muammosini yoritish masalasiga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Shunday dolzarb masalaning yakuniy natijasi sifatida A.Hayitmetovning monografik tadqiqoti yuzaga keldi.

Bobning "Sintaktik kompozitsiyaning shakllanishida tema boshlanma sifatida" deb nomlangan ikkinchi faslida aktual boʻlinish birliklari – tema va rema munosabati, sintaktik-kompozitsion qurilish nuqtai nazaridan oʻrganildi.

Bizga ma'lumki, sintaktik-kompozitsiyada aktual boʻlinish birliklari sifatida koʻpchilik olimlar gapning ifoda asosi sifatida temani va ifoda yadrosi sifatida remani belgilaydilar. Nutq muallifi va eshituvchi yoki oʻquvchi kommunikasiya mexanizmi tarkibiga kiradi. Tema – mavzu ularning har ikkalasiga ham, koʻpincha, oldindan ma'lum boʻlsa, rema yangi xabar, informatsiya hisoblanadi[58]. Tilshunos olim A.Mamajonov "supersintaktik butunliklarda ham aktual boʻlinish kuzatilishi, ya'ni mavzu (tema), nutq predmeti (fikrning nima haqida ekanligi), xabar (rema) esa mavzuning yoritilishi, uning nimadan iborat ekanligi haqida aytib oʻtadi[59].

Aktual boʻlinishning tartibi haqida soʻz ketganda, Praga tilshunoslik maktabining tadqiqotiga koʻra, toʻgʻri tartibdagi aktual boʻlinish normal, neytral va qat'iy (yoki obyektiv) kabi terminlar bilan yuritiladi[60]. Bunda tema va rema odatiy tartibda, xabarning temadan remaga tomon toʻgʻridan-toʻgʻri siljib borishi kuzatiladi, ya'ni jumla tema bilan boshlanib, rema bilan tugatiladi. Bunday tartibni progressiv tartib deb nomlaydilar[61].

Soʻzlovchining kommunikativ maqsadi yetkazilayotgan axborotni aniq va toʻliq uzatishdir. Soʻz tartibining oʻrinli qoʻllanilishi esa sintaktik kompozitsiyaning toʻliq shakllanishi uchun asosiy vositadir.

---

[54] Крущельницкая К.Г. К вопросу о смысловам членении предложения. – ВЯ, 1956, №5

[55] Распов И.П. Актуальные членении и коммуникативно синтаксические типы повествовательных предложений в русском языке. АДД. М., 1964.

[56] Ковтунова .И.И. Современный русский языик. Порядок слов и актуальное членение предложения. М., 1976. – 239 с.

[57] Амиров Р.С. Способ актуального чления в казахском языке. «Советская тюркология». 1970. № 6, Агаева Ф.М. Синтаксис азербайджанской разговорной речи. АДД. М., 1979. Валиев К.Н. Семантическое (актуальное) членение предложения в тюрских языках. Ш.Всесоюз тюрк. Конф (тезисы докладов и сообщений) «Языкознание», Ташкент, 1980.

[58] Ҳайитметов А. Ўзбек тилида гапнинг актуал бўлиниши ва позицион масалалари. Тошкент. «Фан», 1984.

[59] МамажоноваА., Абдупаттоев М. Матн назарияси. – Фарғона, 2016. – Б 56.

[60] Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения Пражкий лингвистический кружок: Сб. статей. – М: Прогресс, 1967. – С.239.

[61] Ўша асар. – С. 245.

Sintaktik kompozitsiyaning boshlanma qismi aktual bo‘linishning asosi bo‘lmish tema bilan hamohangdir. Demak, tema ham sintaktik kompozitsiyaning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Nutqda fikrlarning izchil, tartibli, zanjirday ketma-ket tuzilishi, albatta, tema bilan bog‘liq. Tema qanday semantik strukturada bo‘lmasin, boshqa fikrlar uchun asos bo‘ladi.

Masalan:

Taxt, hokimiyat quyoshga o‘xshab ketadi, hammaga barobar nur sochadi-yu, lekin hammani ham barobar isitmaydi, ul quyoshni olaman, deb cho‘zilgan qo‘llarga esa hayotbaxsh nurlar nayza bo‘lib sanchiladir...

<div align="right">Muhammad Ali. "Sarbadorlar".</div>

Ushbu keltirilgan parchada tema va rema orasidagi mazmuniy bog‘liqlik o‘xshatish, chiroyli dalillar bilan ochib berilgan. Tema va rema orasidagi mana shunga o‘xshash murakkab, obyektiv borliq bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarning remada ifodalanishi natijani belgilaydi. *Taxt* va *hokimiyat* temasi quyoshga o‘xshatilmoqda, *quyoshning esa hammayoqqa nur sochishi* remada yoritilmoqda, lekin remada yana hammayoqqa nur taratadiyu, lekin hammayoqni isitmaydi, deya tema-rema o‘rtasida nomutanosiblik bilan natijaga ishora qilmoqda.

Bu turdagi tema-rematik munosabatlarning ifodalanishi sintaktik kompozitsiyaning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Har qanday turdagi o‘xshatishlar nutqning jozibador va mazmunli bo‘lishini ta'minlaydi.

Nutqda mavzu uning tarkibidagi birinchi gap orqali reallashadi. Birinchi gap orqali mavzu belgilanadi. Matn tarkibidagi (u nechta nisbiy mustaqil gapdan iborat bo‘lishidan qat'iy nazar) qolgan gaplar esa mavzuni yoritish, izohlash, qo‘shimcha ma'lumot berish uchun xizmat qiladi – ya'ni remaga teng keladi. Ana shunday tartib bilan nutqda rema-tema munosabatining namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Nutqda mavzu qanday xarakterda bo‘lishidan qat'iy nazar, rema ana shu mavzu bilan aloqador bo‘lgan yakun-natijani o‘zida aks ettirib turadi. Masalan:

Boshlandi.

Maraz shu lavozimni egallash uchun uch tomondan hujum boshladi: shaharda mashhur ovchi bo‘lib tanilish va uyushmada obro‘ orttirish uchun har yakshanba kuni kechki payt yelkasiga bir emas, ikki ov miltig‘i, beliga bozordan sotib olingan uch-to‘rtta qashqaldoq, uch-to‘rtta tustovuqni osib, oyog‘ida qo‘nji uzun etik, qora yaltiroq tozini ergashtirib shaharning markaziy ko‘chasidan tantanali yurish qilib o‘tadigan bo‘ldi; kotibni qoralash uchun miyasi nimalarni o‘ylab chiqarishga qodir bo‘lsa, hammasini har kimlarga yozdirib, shaharning turli tumanlaridan militsiya boshqarmasiga yubora boshladi.

<div align="right">A.Qahhor. "Ig‘vogar".</div>

Keltirilgan parchadan anglashiladiki, birinchi gapdagi tema orqali harakat ifodalanib (boshlandi), remada esa ana shu harakat natijasida yuzaga kelgan hujumning boshlanishi, tanilish uchun qilingan xatti-harakatlar, obro‘ olish uchun shaharda tantanali yurishlar, insonlarga ko‘rsatilgan qiyinchiliklar ochiq-oydin tasvirlab berilgan. Remada ochib berilgan bu kabi xatti-harakatlarning barchasi temadagi asosiy g‘oyani yoritishdan iborat. Remadagi yoritilishlarning hammasi struktural jihatdan shakllangan gaplar orqali ifoda etilmoqda. Sintaktik

kompozitsiyaning shakllanishi uchun bunday tema-rematik munosabatning ahamiyati beqiyosdir.

Tema va rema o'rtasidagi mazmuniy aloqadorlik o'sib boradi. Nega desangiz, turli-tuman mavzularni ifodalab keluvchi jumlalardagi temaning mohiyatini ochish, uning semantik xususiyatlarini izohlash uchun remada o'ziga xos vositalarning qo'llanilishi muhimdir. Bu turdagi tema-rematik munosabat murakkab hodisa sanalib, bunda temaning makon bilan bog'liq bo'lgan tushunchani ifodalashi barobarida o'sha tushunchada o'xshatish holati ham aks etadi.

Sabr sahrosida rohat qilish iztirob chekish bilan baravar; sabr dashtida dam olish – yugurish bilan barobar.

T.Malik. "Vijdon uyg'onur".

Ushbu keltirilgan tema-rema munosabatida tema fikrning ma'lum bir makonni o'xshatishga aloqador (*sabr sahrosida)* so'z birikmasi orqali remaga bog'lasa, remada uni boshqa mustaqil gaplar orqali yoritib bermoqda.

Sintaktik kompozitsiyaning izchilligini ta'minlovchi bu turdagi murakkab tema-rematik bog'lanishlar muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari temaning turli xil semantik aspektlarda namoyon bo'lgan holatlarini ko'rib chiqib, misollar bilan izohladik.

O.Bozorov gap kommunikativ tuzilishining umumiy xususiyatlariga to'xtalar ekan, "...aktual bo'linish masalasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar temaga to'xtalib o'tib, uning uch xususiyatini qayd etadilar:1) tema – bu "jumlaning tayanch nuqtasi", "xabarning chiqish nuqtasi"; 2) u remaga nisbatan aktual jihatdan kamroq ahamiyatga ega; 3) tema – gapning ko'pincha avvalgi kontekstdan anglashiladigan ma'lum qismi"[62].

Sintaktik-kompozitsion qismlarda tema-rema munosabati, ularning semantik aloqadorligi, o'ziga xos xususiyatlari, ifodalanish ottenkalari, sintaktik konstruksiyalar tarkibida qanday maqsadda va qanday ma'noda qo'llanishi hamda qanday intonatsiyada yetkazilishi bilan o'ziga xosdir.

Bobning uchinchi fasli "Sintaktik-kompozitsion butunlikda rema – voqealar rivoji va tugallanma sifatida" deb nomlanib, remaning sintaktik-kompozitsion butunliklardagi ma'no xususiyatlari ko'rib chiqildi.

O.Bozorov rema haqida quyidagilarni aytib o'tadi. Ular: "1) u tema haqidagi xabarni ifodalaydi; 2) u temaga qaraganda aktual jihatdan muhimdir; u o'zida xabarning asosiy mazmunini aks ettirib, gapning kommunikativ markazi sanaladi; 3) rema odatda gapdan anglashilgan yangi xabarga to'g'ri keladi"[63].

Biz yuqorida tema tushunchasiga alohida to'xtalib o'tdik. Har qanday bog'lanishli nutq tema va remadan tashkil topar ekan, ma'lum bir qismi, albatta, yetakchi vazifani bajaradi. Ana shunday axborotni yetkazishda kommunikativ markaz – rema hisoblanadi. Demak, rema gapning muhim tarkibiy qismi bo'lib, asosiy kommunikativ vazifani bajaradi va tinglovchiga yangi ma'lumotni uzatadi.

[62]Бозоров О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши.Филология фан.номз.дисс. – Фарғона,2004. – Б.198
[63] Ўша асар. – Б.198

Tema esa informativ nuqtai nazardan muhimlik darajasi yuqori bo'lmagan vazifani bajarsa-da, remaga asos berib, uni ta'minlovchi komponent sanaladi.

Rema tema mazmunini yorituvchi, uning har bir ma'no ottenkasini ochib beruvchi, hamda tema haqida bir qancha ma'lumotlar beruvchi sintaktik konstruksiyadir.

Talabalar shaharchasi arining uyasiga o'xshaydi. Mandat degan serg'alva tadbir avj pallasiga chiqqani uchunmi, tumonat odam. Hali shahar havosiga ko'nikib ulgurmagan, ko'ylak-shimi g'ijimlangan yigitlar, uzun lozim kiygan, sochini maydalab o'rgan qizaloqlar... Baqateraklar soyasida O'zbekistonning ming bir burchagidan kelgan mashinalar... Oynaband eshiklar oldi qiy-chuv. Biri yalinib, biri po'pisa qilayotgan otalar, atlas ko'ylagining yoqasiga "Qahramon ona" medalini taqib olgan onalar...

O'.Hoshimov. "Tushda kechgan umrlar".

Ushbu keltirilgan parchada tema makon bilan bog'liq bo'lsa-da, ma'lum bir o'xshatish orqali ifodalanadi. Bunday temalarni belgilashda, asosan, rema orqali yoritilayotgan fikrlarga e'tibor qaratiladi. Mazkur misolda *talabalar shaharchasining ari uyasiga* o'xshatilishi tema bilan ifodalangan. Rema qismida esa shahardagi holatlar (*shaharda odamlarning gavjumligi, shahar havosiga ko'nikib ulgurmagan yigit va qizlar, O'zbekistonning bir burchagidan kelgan mashinalar, ota-onalar kabi*) birma-bir ochib berilgan.

Kuzatishlarimiz davomida tema va remaning o'rin almashgan, inversiya holatlari ham uchradi.

Aktual bo'linishning teskari tartibi V.Matezius tomonidan subyektiv tartib yoki inversiya deya atalgan va uning voqelikka "emotsional bo'yoqdorlik" berish uchun qo'llanilishi ta'kidlangan[64]. Bunday o'zgargan tartib odatiy sintaktik tartib bilan mos kelmasligi mumkin. I.I.Kovtunova ta'kidlaydiki, nutq va kontekstdan ajratilgan, ma'lum grammatik tartibga ega bo'lgan jumla kontekst ichida aynan shu nutqiy vaziyat uchun xos bo'lgan qo'shimcha xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Mazkur holatda boshqa bir ko'rinishdagi, ya'ni tema va remaga bo'lingan tartib paydo bo'lishi mumkinki, grammatik tartib bilan bu doim ham mos kelavermaydi[65].

I.I.Kovtunova bergan izohga ko'ra, "stilistik jihatdan neytral bo'lgan qurilmaning tartibiy o'zgarishi inversiya hodisasi bilan bog'liqdir"[66].

Yuqoridagi qarashlardan xulosa qilishimiz mumkinki, tema va rema o'rtasidagi o'rin almashinish, ya'ni teskari qo'llanish hodisasi gapdagi mazmunga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Aktual bo'linishni to'g'ri yoki teskari tartibda qo'llash so'zlovchining kommunikativ maqsadi sanaladi. U buni o'zi xohlagan tarzda amalga oshirishi mumkin. Tinglovchiga uzatayotgan xabarni yana ham ishonchli tarzda yetkazish, xabarning muhim qismini ajratib ko'rsatish, emotsional bo'yoqdorlik va ekspressivlikni kuchaytirish, aktuallashtiruvchi vositalardan foydalanish asosida o'z maqsadini amalga oshiradi. Masalan:

---

[64] Ковтунова .И.И. Современный русский языик. Порядок слов и актуальное членение предложения. М., 1976. – С.11

[65] Ўша асар. – С.12

[66] Ўша асар. – С.103

"Shuncha tez!" – deb o'yladi miyig'ida kulib. Shu ondayoq stul suyanchig'iga ilib qo'yilgan qora shimiga ko'zi tushdi-yu, hayron qoldi. "Darrov kiyimlarimniyam opkelishibdi", – deb o'yladi xalatini yecharkan. Uning kostyumi, bo'yinbog'i taxt qilib qo'yilgan edi. To'shagining bir chekkasida gazeta qog'ozga o'ralgan kulrang palto yotardi. "Qishda kelib, yozda ketyapman". U kulimsirab qo'ydi. Shoshilmasdan shimini kiydi. Avvaliga shimining qirrasini chiqarib hafsala bilan dazmollanganini payqamadi ham. Kasallik varaqasini solib qo'yish uchun cho'ntagiga qo'l tiqqan edi ro'molcha ilashib chiqdi. Bu o'zining katak-katak ro'molchasi edi. "Shimimda qolib ketgan ekan-da", deb o'yladi u ro'mol qatini yozib. Shunda dimog'iga gup etib nafis atir hidi urildi-yu, birdaniga tushundi. "Shoira! Hammasi Shoiraning ishi!"

O'.Hoshimov. "Nur borki, soya bor".

Yuqoridagi parchadan ma'lum bo'ldiki, tema va rema o'rin almashib, teskari holatda kelmoqda. Jumla boshidagi "Shuncha tez" ifodasi tinglovchi e'tiborini jalb qilish bilan birga, uning qiziqishini ham orttiradi. Muallif tomonidan ayrim so'z birikmalari yoki gaplar ajratilib ko'rsatilgan. Bundan asosiy maqsad tinglovchi e'tiborini tortish, fikrini jalb qilish va xabardagi o'sha jumlalarni boshqalariga nisbatan kuchliroq ifodalash hisobiga maqsadiga erishishdir. Jumlalar orasida kutilmagan holatdan ajablanish hissi *(darrov kiyimlarimniyam opkelishibdi)*, muntazam yashamasligi *(qishda kelib, yozda ketyapman),* yo'qolgan narsaning topilishi *(shimimda qolib ketgan ekan-da)* kabi kutilmagan vaziyatlarni jozibador qilib, alohida ta'kidlab, ko'rsatib, tinglovchini ham o'sha vaziyatdan xabardor qilish kabi xususiyatlar remada ochib berilgan. Tema esa gapning yakunida *(Shunda dimog'iga gup etib nafis atir hidi urildi-yu, birdaniga tushundi. "Shoira! Hammasi Shoiraning ishi!")* kelmoqda. Ushbu jumlalarda rema gapning boshida kelib, tema esa gapning oxirida kelishi bilan o'z funksiyasini bajarmoqda. Bunday hollarda so'z tartibi hamda stilistik vositalarda o'zgarish bo'ladi, lekin jumlaning semantik holatiga umuman ta'sir qilmaydi. Muallif o'z niyatini aytishga shoshilmaydi, ana shu tariqa bunday nutq ko'rinishlarida tema va remaning o'rinlashuvi almashinib qoladi. To'plangan va tahlil etilgan misollarga tayangan holda, tema-rematik munosabatning semantik tasnifini misollar bilan ko'rib chiqdik.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sintaktik kompozitsiyani shakllantiruvchi tema-rema munosabatini qo'yilayotgan mavzuning xususiyati va xarakteridan kelib chiqib, ma'lum bir tizim asosida o'rganish katta ahamiyatga ega.

UMUMIY XULOSA

Sintaktik kompozitsiyaning semantik va struktural jihatlarini o'rganish tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Nutqiy muloqot kishilar o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. Uni faqat lingvistik birliklar yig'indisi deb qarash nihoyatda kamlik qiladi. Uning to'laqonli tadqiqi bir nechta fanlar sohasi uyg'unligini talab qiladi.

2. Nutqning yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omil uning kompozitsion qismlarga ega ekanligi bilan bog'liq. Nutq kompozitsiyasi asosan uch qismdan tarkib topadi: bosh (kirish), asosiy qism (fikrlar rivoji) va yakun (xulosa). Bu qismlarning har biri nutq va uning natijadorligida muhim o'rin tutadi.

3. Matnning kompozitsion tuzilishida sarlavha alohida o'rin tutadi. Sarlavha – bu maqolaning nomi xarakterida bo'lib, uning asosiy mazmunini umumlashtiradi. Sarlavhalar matndan oldin kelib, o'quvchining e'tiborini jalb qilish vazifasini bajaradi. O'zbek tilida sarlavhalardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, publisistik uslub materiallari uchun sarlavhalar alohida muhim o'rin tutadi. Sarlavhalarni turli jihatdan tasniflash mumkin.

4. Nutq kompozitsiyasining tarkibiy qismlari boshlanma, fikr rivoji va tugallanmadan iborat bo'lib, ular yaxlit mexanizmni tashkil qiladi. Nutq strukturasining mazkur tarkibi mantiqiy-grammatik jihatdan tashqari bixevoristik belgilarga ko'ra ham turlicha shakllantiriladi.

5. Boshlanma, fikr rivoji va tugallanma struktural hamda semantik jihatdan tasniflanadi. Boshlanma nutq kompozitsiyasining asosiy maqsadga kirishish, debocha qismi hisoblanib, uning turli ko'rinishlari mavjud. Fikr rivoji nutq kompozitsiyasining asosiy bo'g'ini hisoblanib, katta ahamiyat kasb etadi. Nutq kompozitsiyasi nihoyasida tugallanma keltiriladi.

6. Nutq tuzilishi uning ifoda maqsadi bilan uzviy bog'liqdir. Shu ma'noda uning tipologiyasida zamon va makon bilan aloqadorlik yetakchi o'rin tutadi. Bundan tashqari shart, maqsad, sabab va o'xshatish kabilarga asoslangan natija holati ham uchraydi. Ularni o'zaro farqlashda nutq kompozitsiyasi shakl, mazmun va maqsad jihatidan uyg'unlikda tahlilga tortiladi.

7. Nutq tuzilishining asosiy mantiqiy tushunchalari sifatida tema va rema farqlanadi. Nutq tarkibidan temaning tanlanishi va uni mos remalar orqali to'ldirilishi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muvofiqlik darajasi, salohiyat va psixologik vaziyatning o'zaro mosligi orqali ta'minlanadi. Tilshunoslikda nutqning aktual bo'linishi nomi bilan o'rganilgan ushbu masalada ba'zi ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning juda ko'p qirralari yetarlicha talqin etilmagan. Uning tadqiqi tilshunoslikning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

8. Tilshunoslikda sintaktik munosabatlar hamda matn sintaksisiga oid qator monografik tadqiqotlar amalga oshirilgani holda nutqning sintaktik kompozitsiyasi yetarlicha o'rganilmagan. Nutqning struktural va semantik tahlili bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan o'rinlar mavjud. Ulardan biri sintaktik kompozitsiyasining lisoniy xususiyatlari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sintaktik kompozitsiya nutqning murakkab ko'rinishli hosilasi sanaladi. U ham mantiqiy, ham grammatik, ham struktural talablarga javob bergani holda bu jihatlarning o'zaro muvofiqlashgan uyg'unligiga ega bo'lishi zarur.

9. Nutq tafakkursiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Uni faqat tuzilish jihatdan tahlil qilish yoki shunchaki til birliklarining jamlanmasi deb qarash mumkin emas. Uning kompozitsion qurilishi va semantik asoslarini mukammal tadqiqiga erishish tilshunoslikda sathlararo chambarchas bog'liqlikni talab qilib, bunday tahlillar fanning bir necha sohalari integratsiyasida amalga oshiriladi.

10. Tilshunoslikda olib borilgan tadqiqotlarda nutqqa yo semantik jihatdan, yo struktural jihatdan yondashilib kelingan. Aslida, ular bir-biri bilan uzviy aloqadordir. Struktural va semantik yondashuvlarni o'zaro umumlashtirish mavzu yuzasidan mukammal natijalarga erishishni ta'minlaydi.

FERGANA STATE UNIVERSITY CURRENT DEGREE GRANTER DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 DIGITAL SCIENTIFIC COUNCIL FERGANA STATE UNIVERSITY

SAIPOVA HILOLA ABDULKHAMITOVNA

SYNTACTIC COMPOSITION OF SPEECH AND ITS COMMUNICATIVE, SEMANTIC, FUNCTIONAL STUDY

10.00.01 - Uzbek language

ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) DISSERTATION ON PHILOLOGY

Ferghana - 2023

The theme of PhD dissertation is registered by the **Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.4.PhD/Fil2842**

The doctoral (PhD) dissertation was carried out at Fergana State University

The doctoral thesis has been prepared at the chair of Uzbek linguistics of Fergana State University. The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the website of Scientific Council and the information-education portal «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz)

Scientific supervisor:	**Abdupattoyev Muxammadtohir Tojimamatovich** Doctor of Philological Sciences, Dotsent
Official opponents:	**Usmonova Hurinisa Sharopovna** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Pardayev Azamat Baxronivich Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading organization:	**Andijan state university**

Defense of the dissertation will take place on «_28_» _avgust_ 2023 at _11'00_ at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 under Fergana State University (Address: 19, Murabbiylar street, Ferghana, 100151. Tel.: (993873) 244-66-02; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available in the Information Resource Center of Fergana State University (registered under №_291_). Address: 19, Murabbiylar Str. Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-71-28.
The abstract of the dissertation is distributed on «____» _____ 2023.
(Mailing report No. ____ dated «____» _____ 2023).

Sh.M.Iskandarova
Chairman of Scientific Council
Awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor.

M.T.Zokirov
Secretary of the Scientific Council,
Awarding scientific degree,
Candidate of Philological Sciences, Professor.

A.B.Mamajonov
Chairman of the scientific Seminar
at the Scientific Council, Awarding
scientific degree, Doctor of Philological
Sciences, Professor.

INTRODUCTION
(Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation Annotation)

Actuality and necessity of the research theme. In recent times, in world linguistics, the study of the laws of formation of the text as human speech and its written form, the study of the text in communicative, semantic-structural and anthropocentric aspects have become popular. Studying and interpreting human speech within the framework of linguistic and cultural problems has become one of the central issues. From this point of view, the role of language in society is evident not only as a means of communication, but also as a means of influence. One of the main tasks of the language - the function of influence is assessed by the consistent expressiveness of the thought, the possibilities of using descriptive and effective means, and how the syntactic composition of the speech is formed. After all, the communicative goal of the author of the speech is to affect the addressee by expressing his inner feelings in an emotional-expressive way, and thus leads to the expansion of his imagination about social life and existence, and it is possible to see reality from the eyes of the addressee. The study of the laws of the formation of speech, its syntactic compositional research in a broad sense is of practical importance in expanding the scope of research conducted in world linguistics today.

In world linguistics, research on speech formation problems is carried out on the basis of syntactic-compositional and semantic-functional analysis methods. Today, it has become a tradition to study human speech at the intersection of sociolinguistics and speech culture. As a result of this, fields that study the system of artistic speech in one way or another are developing in linguistics. Our present research is also within the scope of such research, and the study of syntactic level problems, including the issues of speech formation, serves to fully justify the theoretical aspects of the problem within the framework of linguistic research.

Each research work has a special place in determining the expressive possibilities of the Uzbek language. In Uzbek linguistics, considerable scientific research has been carried out in this regard, in particular, in research in the field of syntax, certain achievements have been made in substantiating and interpreting the rich expressive possibilities of our language. These studies, along with defining new directions for future work in this field, also showed the need to study the expressive possibilities of the Uzbek language in a wider and more detailed way. The need to study the linguistic nature of speech and its syntactic features based on the criteria of modern scientific research has become an urgent issue on the agenda. Even in the conditions of the current New Uzbekistan, it is necessary to comprehensively expand the scope of the use of our language, to further develop scientific and research works, "the Uzbek language in electronic form, which contains all scientific, theoretical and practical information about the Uzbek language. the issue of taking steps to create a national corps"[67] is urgent.

---

